



JINOYAT PROTSESSIDA TERGOV HARAkatLARI VA TEZKOR-QIDIRUV TADBIRLARINI TARTIBGA SOLISHDA FUNKSIONAL EKVIVALENTLIK PRINSIPI

Habibullayev Dalerbek Baxtiyor o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti Klinik ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi
yuridik klinikalar uslubchisi*

e-mail: habibullayevdalerbek@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda shaxs huquqlarini cheklovchi tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini tartibga solishda funksional ekvivalentlik prinsipining mazmuni va normativ ahamiyati tahlil qilinadi. Huquqqa aralashuvning nomi yoki uni amalga oshiruvchi organdan qat'i nazar, maqsadi, obyekti, intensivligi va huquqiy oqibatlari o'xshash choralar uchun teng protsessual kafolatlar belgilanishi zarurligi asoslanadi. Milliy qonunchilikdagi sanksiyalash tartiblari baholanib, ularni sud nazorati, subsidiarlik, mutanosiblik va dalillar maqbulligining yagona standartlari asosida uyg'unlashtirish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: funksional ekvivalentlik, tergov harakati, tezkor-qidiruv tadbiri, shaxsiy hayot daxlsizligi, sud nazorati, mutanosiblik, subsidiarlik, dalillar maqbulligi.

Jinoyatlarni aniqlash va isbotlashda bir xil axborotni olishga qaratilgan choralar turli huquqiy shakllarda qo'llanilishi mumkin. Telefon va telekommunikatsiya orqali uzatiladigan axborotni olish JPK doirasida tergov harakati, tezkor-qidiruv qonunchiligida esa maxsus tadbir sifatida namoyon bo'ladi. Ularning nomi va subyekti farqlansa-da, har ikkisi shaxsning maxfiy



muloqotiga aralashadi, yashirin axborot yig'adi va protsessual qarorlarga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ularga faqat formal tasnif asosida turlicha kafolatlar belgilash shaxs huquqlarini himoya qilish tizimida nomutanosiblik tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi shaxsiy hayot, yozishmalar, telefon so'zlashuvlari, elektron xabarlar va uy-joy daxlsizligini kafolatlab, ushbu huquqlarni cheklashni qonun hamda sud qarori bilan bog'laydi¹. Biroq amaldagi tartibda mazmunan o'xshash choralar turlicha sanksiyalanadi: JPK tintuv va telekommunikatsiya axborotini olishga oid iltimosnomalarni tergov sudyasi ko'rib chiqishini nazarda tutadi, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunda esa ayrim huquqni cheklovchi tadbirlarga prokuror sanksiyasi asosida yo'l qo'yiladi². Demak, nazorat darajasi ayrim hollarda aralashuvning mohiyatiga emas, uning qaysi normativ institutga kiritilganiga bog'lanib qolmoqda.

Mazkur muammoni bartaraf etishda funksional ekvivalentlik prinsipi metodologik asos bo'lishi mumkin. Unga ko'ra, maqsadi, bilish obyekti, huquqqa aralashuv intensivligi va natijasining protsessual oqibatlari o'xshash tergov harakatlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari uchun teng darajadagi minimal kafolatlar tatbiq etilishi lozim. Bu barcha choralarni bitta shaklga to'g'ridan to'g'ri birlashtirishni anglatmaydi; tezkor faoliyatning konspirativligi saqlanadi, ammo nooshkoralik sud yoki prokuror nazoratini kamaytirish vositasiga aylanmasligi kerak.

Funksional ekvivalentlik to'rtta mezon orqali aniqlanishi maqsadga muvofiq: birinchisi – olinadigan axborot va tadbirning maqsadi; ikkinchisi – aralashuv obyekti, ya'ni uy-joy, kommunikatsiya, shaxsga doir yoki raqamli

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat sanasi: 06.08.2026).

² O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2012-yil 25-dekabr, O'RQ-344-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-2107763> (murojaat sanasi: 06.08.2026).

ma'lumotlar; uchinchi – davomiylik, qamrov, texnik imkoniyat va uchinchi shaxslar ma'lumotlarini yig'ish ehtimolini qamrab oluvchi intensivlik; to'rtinchi – natijaning daliliy va boshqa huquqiy oqibatlari. Mazkur mezonlar tadbir nomini emas, uning shaxsga real ta'sirini baholash imkonini beradi.

Masalan, turar joyda oshkora tintuv bilan uni shaxsga bildirmasdan texnik vositalarda tekshirish tashkiliy jihatdan farq qiladi, biroq har ikkisi yopiq makonga kirish va shaxsiy ma'lumotlarni aniqlashga qaratilgan. Nooshkora shaklda shaxs tadbir vaqtida e'tiroz bildirish, himoyachidan foydalanish yoki harakat chegaralarini kuzatish imkoniga ega emas. Shuning uchun nooshkoralik protsessual kafolatlarni susaytirish evaziga emas, mustaqil nazoratni kuchaytirish uchun asos bo'lishi lozim.

Yevropa inson huquqlari sudi yashirin kuzatuvga doir amaliyotida qonunning aniqligi, tadbir qo'llaniladigan jinoyatlar va shaxslar doirasi, davomiylik, ma'lumotlarni saqlash va yo'q qilish tartibi, mustaqil nazorat hamda samarali huquqiy himoya vositalarini majburiy kafolatlar sifatida shakllantirgan³. Sud "funktional ekvivalentlik" atamasidan foydalanmagan bo'lsa-da, uning yondashuvidan huquqqa mazmunan teng aralashuvlar uchun teng darajada samarali nazorat zarurligi kelib chiqadi.

Qiyosiy tajribada ushbu yondashuv turli shakllarda ifodalangan. Germaniya JPKda telekommunikatsiya nazorati, axborot tizimiga yashirin kirish, turar joyni akustik kuzatish va yashirin agentlardan foydalanish maxsus asoslar hamda sud nazorati bilan tartibga solingan⁴. Qozog'iston⁵ va Ukraina⁶

³ Klass and Others v. Germany, no. 5029/71, 6.09.1978; Roman Zakharov v. Russia [GC], no. 47143/06, 4.12.2015.

⁴ Strafprozessordnung (StPO) in der Fassung der Bekanntmachung vom 7. April 1987, §§ 100a–100j, 110a–110e // Bundesministerium der Justiz. URL: <https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/> (murojaat sanasi: 06.08.2026).

⁵ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V ЗРК // ИПС «Әділет». URL: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231> (дата обращения: 30.07.2026).

⁶ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V ЗРК // ИПС «Әділет». URL: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231> (дата обращения: 30.07.2026).;

kodekslarida nooshkora tergov harakatlari alohida protsessual institut sifatida belgilangan, ularning subsidiarligi, muddati, sanksiyalanishi va natijalaridan foydalanish tartibi ko'rsatilgan. Bu tezkor bo'linma tadbirni amalda bajarishi uni protsessual kafolatlardan tashqarida qoldirmasligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda funksional ekvivalentlikni joriy etish uchun, avvalo, huquqni cheklovchi barcha tergov va tezkor-qidiruv choralari ularning nomiga emas, aralashuv obyekti va intensivligiga ko'ra tasniflash zarur. Turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish, pochta, kuryerlik jo'natmalari va telegraf xabarlarini nazorat qilish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risida axborot olish yagona sud sanksiyasi, aniq muddat, subsidiarlik hamda mutanosiblik mezonlariga bo'ysundirilishi kerak. Ruxsat so'rash haqidagi iltimosnomada faktik asoslar, kamroq cheklovchi vositalar nega yetarli emasligi, tadbirning obyekti, muddati, qamrovi va ma'lumotlarni minimallashtirish choralari ko'rsatilishi lozim.

Kechiktirib bo'lmaydigan holatlar uchun ham teng yondashuv talab etiladi: yuqorida keltirilgan tezkor tadbirlar haqida qisqa muddatda tergov sudyasi xabardor etilishi, ruxsat tasdiqlanmasa tadbir to'xtatilishi hamda materiallardan foydalanish taqiqlanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, funksional ekvivalentlik prinsipi mazmunan teng aralashuvlarga teng huquqiy kafolatlarni tatbiq etishni anglatadi. Uning qonunchilikda mustahkamlanishi tezkor-qidiruv faoliyatining zarur tashkiliy mustaqilligini saqlagan holda, normativ tasnif orqali konstitutsiyaviy kafolatlarni chetlab o'tish imkoniyatini kamaytiradi. Natijada jinoyatlarni fosh

etish samaradorligi shaxs huquqlarining himoyasiga qarama-qarshi qo'yilmay, qonuniylik, subsidiarlik, mutanosiblik va mustaqil sud nazorati asosida uyg'unlashtiriladi.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat sanasi: 06.08.2026).

2. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2012-yil 25-dekabr, O'RQ-344-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-2107763> (murojaat sanasi: 06.08.2026).

3. Klass and Others v. Germany, no. 5029/71, 6.09.1978; Roman Zakharov v. Russia [GC], no. 47143/06, 4.12.2015.

4. Strafprozessordnung (StPO) in der Fassung der Bekanntmachung vom 7. April 1987, §§ 100a–100j, 110a–110e // Bundesministerium der Justiz. URL: <https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/> (murojaat sanasi: 06.08.2026).

5. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V ЗПК // ИПС «Әділет». URL: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231> (дата обращения: 30.07.2026).

6. Кримінальний процесуальний кодекс України від 13 квітня 2012 року № 4651-VI. Глава 21 // Законодавство України. URL: <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/4651-17> (дата звернення: 30.07.2026).

